

YONMA -YON KELGAN UNDOSHLAR TASNIFI

*G'aybullayeva Nasiba**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti**Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

Annotasiya: ushbu maqolada yonma-yon kelgan undoshlar tasnifi va tavsifi ma'lumotlar keltirilgan. Bunda qo'sh va qator undoshlar haqida so'z yuritilib, ular bo'yicha ma'lumotkar berib o'tilgan hamda mustahkamlash uchun topshiriqlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yonma -yon kelgan undoshlar, undosh tovushlar, qo'sh undoshlar, qator undoshlar, orfografik tamoyillar, fonetik tamoyillar, imlo qoidalari, o'zlashma so'zlar, og'zaki nutq, yozma nutq.

Barchamizga ma'lumki, yoshligimizda birinchi marta o'rganilayotgan, ayniqsa, biz uchun notanish bo'lgan so'zlarni eslab qolish anchayin murakkab jarayon hisoblanadi. Ustiga-ustak bir-biriga o'xshash so'zlar va tushunchalarni yodda saqlash anchagina mushkul. Xo'sh, biz o'zbek tilida yonma -yon kelgan undoshlar deganda, avvalo, qanday so'zlarni tushunamiz? Qanday so'zlar ko'z oldimizga keladi?

Eng avvalo, mana shu savollar ustida to'xtalib o'tsak, o'zbek tilida yonma -yon kelgan undoshlar deganda qo'sh va qator undoshli so'zlar nazarda tutiladi. Endi qo'sh undoshlar va qator undoshlar iboralariga tasnif beramiz.

QATOR UNDOSHLAR. Bir bo'g'inda yonma -yon kelgan ikki xil undosh tovushlarga qator undoshlar deyiladi.

ESLAB QOLING! Qator undoshli so'zlarning muhim belgisi shundan iboratki, bunday so'zlarda ikki xil yonma -yon kelgan undosh tovushlar aynan bir bo'g'in tarkibida keladi.

Misollar: takror, standart, broker, stakan, harf, stul, stol, qand, pand, shikast, asr, go'sht, baxt, taxt kabi.

MUHIM! Paxta, taxta, g'uncha, kulcha, o'simlik, o'smirlik kabi so'zlarda ham yonma -yon kelgan ikki xil undosh tovushlar mavjud, lekin bu undoshlar aynan bir kun tarkibida kelmagan. Shu sababli ham ular qator undoshli so'zlar sirasiga kirmaydi. Pax-ta, tax-ta, g'un-cha, kulcha, o'sim-lik, o'smir-lik kabi. Shuningdek, o'zbek alifbosida bir tovushni ifodalovchi harf birikmalari ham qator undoshli so'zlar qatoriga kirmaydi. Masalan, dengiz, tengsiz, singil so'zlarida qator undoshlar mavjud emas, chunki bu so'zlardagi "ng" harf birikmasi hisoblanadi va yuqorida aytib o'tilganidek, bir tovushni ifodalaydi.

MUHIM! Gap tarkibida qator undoshli so'zlar kelganda so'zga qo'shimcha qo'shilganda ham qator undoshli so'zlar baribir qator undoshli so'zligicha qoladi. Masalan, Nafs va nafas, aql va qaxr muhim tanlov gapida uchta qator undoshli so'zlar

mavjud. Bular:nafs,aql va qaxr soʻzlaridir.Bu soʻzlarda qoʻshimchalar qoʻshilganda qator undoshlar ikkinchi boʻgʻinga koʻchishi mumkin, lekin shuncha qaramasdan ular oʻzak soʻzda bir bino tarkibida kelganligi bois,qator undoshli soʻzlar sifatida qoladi. Nafs+im=nafsim, qaxr+ning=qaxrning kuchi kabi.Shuningdek aql soʻziga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilganda ham unga qator undosh sifatida qaraladi masalan:aql+li=aqlli.

ESLAB QOLING! Oʻzbekcha soʻzlarning fonetik tuzilishidagi oʻziga xos boʻlgan asosiy oʻziga xos sifatlar mavjud boʻlib ular quyidagilar:

1.Soʻz boshida ketma -ket ikki undosh bir joyda kelmaydi. Yaʼni soʻz boshida qator undoshlar keluvchi soʻzlar sof oʻzbekcha soʻzlar emas. Stadion,drama, trolleybus, tramvay kabi soʻzlar rus va Ovroʻpo tillaridan oʻzlashgan soʻzlar hisoblanadi.

2.Soʻz oxirida st(ost,ust,sust); lt(yalt, yult,milt); rt(qurt, tort, toʻrt) .Ushbu qoʻsh undoshlardan tashqari boshqa undoshlar oʻzbek tilida yonma -yon kelmaydi. Faqatgina ushbu qator undoshli soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar sifatida qaraladi.

ESLAB QOLING! Soʻz oxirida qator kelgan sht(goʻsht, gʻisht,musht); xt(baxt, taxt,axt); rg(barg). Bu soʻzlar, asosan, fors-tojik tilidan oʻtgan soʻzlar tarkibida keladi.Bu kabi soʻzlarda yonma -yon kelgan undoshlardan biri talaffuzda xuddiki tushib qoladi, lekin shunday boʻlishiga qaramasdan, ikkala undosh tovushlar yozuvda ifodalanadi.

Talaffuzda bir undosh aytilmasdan talaffuz qilinadigan soʻzlarga misollar:

Goʻsh, gʻish mush -talaffuzda;

Goʻsht, gʻisht, musht -yozuvda;

Daraxt,karax-talaffuzda;

Daraxt,karax-talaffuzda ifodalanishi.

Qator undoshli soʻzlarni oʻrganishda ushbu soʻzlarni yodda tutish va ularning talaffuz va imlosiga eʼtibor qaratish zarur.

QOʻSH UNDOSHLAR. Yonma -yon kelgan bir xil undoshli soʻzlar qoʻsh undoshli soʻzlar deyiladi.Qoʻsh undoshlar aynan bir xil undoshning yonma -yon kelishi natijasida hosil boʻladi va soʻzning turli qismlarida kelishi mumkin.Buni quyidagicha koʻrib chiqamiz:

1 .Soʻz boshida: ssenariy;

2.Soʻz oʻrtasida:ikki, yetti, sakkiz, toʻqqiz;

3.Soʻz oxirida:garmm, kilovatt, metall,kongress kabi.

ESLAB QOLING! Baʼzi soʻzlarda qoʻsh undoshlardan biri tushirib qoldirilganda,soʻz maʼnosi ham oʻzgarishga uchraydi.Misol uchun, sodda(soda), modda(moda), tilla (tila), qattiq (qatiq) singari.

MUHIM! Kongress, kilovatt, Vatt, metall kabi oʻzlashgan soʻzlar oxirida talaffuzda bir undosh tushirib qoldirilgandek talaffuz qilinsa-da,yozuvda oʻz holicha yoziladi.Shu bilan birga, bunday soʻzlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qoʻshimcha

qo'shilganda oxirgi qo'sh undoshlardan biri tushirib qoldiriladi va shunday yoziladi. Misollar: metall+lar=metallar, gramm+mi=grammi? Kabi .

Eslab qoling! O'zbek tilida a,o,u,I unilari qator -qo'shaloq holatda kelishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Bunday unilar yonma -yon kelgan so'zlar ,asosan, arab tilidan va rus tili orqali kirib kelgan.

Misollar: manfaat, inshoot, iztehzomus, shuur, vakuum, badiiy, matbaa, tabiiy, mutolaa va shu kabi so'zlar.

Xulosa o'rnida aytish joizki, yonma -yon kelgan undoshlar deganda, qo'sh va qator undoshlar tushuniladi. Biz qo'sh undoshli va qator undoshlar so'zlarni o'rganar ekanmiz, eng avvalo, ularni bir -biridan farqlashni keyin esa ularning talaffuz va imlosiga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Buning uchun esa mashqlar va savol -javoblar orqali qiziqarli dars jarayonini tashkil etish yaxshi samara beradi. Endi xuddi shunday mashqlardan misollar keltiramiz.

Quyida berilgan so'zlardan qo'sh undoshli va qator undoshlar so'zlarni ajratib yozing:

! Metall, kongress, studiya, inspeksiya, muharrir, ssenariy, kilovatt, Vatt, daraxt, karaxt, baxt, taxt, g'isht, musht, past, kasb, test, bank, tank, transport, abonent, ocherk, assimilyatsiya, dissertatsiya, ganch, qand, pand, farzand, harchand.

Ushbu so'zlarda qo'sh unsoshlar talaffuziga e'tibor bering:

Artilleriya, millat, tonna ,progress, hassa, murabbiy, tanaffus, arra, alla.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Nargiza Erkaboyeva va Xolida Abdusattorova."O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami "Yosh kuch "nashriyoti. Toshkent 2023.
2. Madrim Hamrayev. Ona tili-eng yangi nashr. Toshkent 2019.
3. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Yangi asr avlodi nashri. Toshkent 2018